


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**FILOLOGIYA FANLARI BLOK MODULI BO‘YICHA  
UMUMIY O‘RTA TA‘LIMNING  
O‘QUV DASTURI  
( IX SINFI )**

**O‘ZBEK TILI**



**Toshkent-2018**

## TUSHUNTIRISH XATI

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablarining rus guruhlarida o'zbek tili kommunikativ-nutqiy tamoyilda ikkinchi til sifatida o'qitiladi. O'zbekistonda yashovchi barcha millat vakillarining o'qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo'lishlari, barcha sohalarda erkin fikr almashishlari o'zbek tilidan egallaydigan nutqiy va lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot hamda mutaxassislik sohaslarida og'zaki va yozma erkin muloqot yuritish ko'nikma va malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'zbek tili fanidan 2-11-sinflar o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standartining talablari asosida tuzilgan.

### **O'zbek tili fanini o'qitishning maqsadi:**

o'quvchilarning o'qish va mehnat jarayonida, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikrini bayon eta olish, eshitilgan axborotni idrok etish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish; o'zbek adabiyotining eng sara namunalari, o'zbek xalqining tarixiy, madaniy hayoti, jahon madaniyatiga va milliy madaniyatga hissa qo'shgan buyuk allomalar ijodiy merosini o'rganish orqali milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish malakasini rivojlantirishdan iborat.

### **O'zbek tili fanini o'qitishning vazifalari:**

o'quvchilarning kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o'zbek tili fani bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo'llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish;

o'quvchilarning o'zbek tilida og'zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish;

o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari asosida o'zini o'zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko'nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo'llay olishni shakllantirishdan iborat.

5-9-sinflardan boshlab esa o'quvchilarga o'zbek tilida so'z tarkibi, so'zlarning yasalishi va o'zgarishi, so'z turkumlari, so'zlarning o'zaro bog'lanishi, so'z birikmasi hamda gap tuzish qonuniyatlarini o'rgatish yuzasidan nazariy bilimlarni berish ko'zda tutiladi. Ushbu bilimlar asosida hosil qilinadigan ko'nikma-malakalar bitiruvchilarda o'zbek tilida so'zlarni o'zaro to'g'ri bog'lab gap tuza olish, nutqning dialogik va monologik shakllarida erkin muloqot yurita olish kompetensiyalarini shakllantirishi lozim. Shundan kelib chiqib o'quv dasturida sinflar kesimida har bir nutqiy mavzu doirasida **leksik-grammatik minimum** (faol so'zlar, birikmalar, so'z shakllari), **muomala odobi**, **adabiy o'qish** va **ish qog'ozlarini yozish** yuzasidan materiallar berildi. Ushbu materiallar o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda 5-6-sinflarda **leksika**, **grammatika**, **muomala odobi**, **adabiy o'qish**; 7-9-sinflarda esa **leksika**, **grammatika**, **ish qog'ozlarini yozish** va **adabiy o'qish** sifatida taqsimlandi. Bunda **nutqiy kompetensiya** har bir sinf uchun uzviylik va uzluksizlik asosida belgilangan nutqiy mavzular va ular bo'yicha beriladigan faol so'z va birikmalar, nutq namunalari, **lingvistik kompetensiya** esa grammatik bilimlar va so'z shakllarida ifodalanadi. Grammatika bilan tanishtirishda 5-8-

sinflarda tilning morfologiya bo'limiga oid ma'lumotlarni, 9-sinfda esa sintaksis bo'limiga oid so'z birikmasi va sodda gapga doir ma'lumotlarni soddadan murakkabga tomon izchillikda o'stirib boriladi. O'zlashtirilgan so'zlar, birikmalar va egallangan bilimlar orqali o'quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga erishiladi.

O'zbek tilini o'qitishda, shuningdek, muomala odobi va rasmiy muloqot yuritish hamda adabiy o'qish bo'yicha beriladigan materiallarning o'rni ham nihoyatda muhim. Shunga ko'ra, 5-sinfda muomala odobiga oid iboralar, 9-sinfda esa rasmiy ish qog'ozlarini yuritishga oid ma'lumotlar berildi. Adabiy o'qish materiallari ham o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda taqsimlandi: 5-sinfda o'quvchilarni ertaklar, she'rlar, topishmoq va maqollar bilan, 6-7-sinflarda hikoyalar, rivoyatlar, o'zbek bolalar adabiyoti namunalari bilan tanishtirish, 8-9-sinflarda esa o'zbek yozuvchilarining asarlaridan parchalar, publitsistik matnlar ustida ishlash ko'zda tutildi. 10-11-sinflar o'quv dasturida bilimlarni mustahkamlash asosida o'quvchilarning og'zaki va yozma bog'lanishli nutqini rivojlantirish ko'zda tutilgan. Buni amalga oshirish uchun 10-sinfda sintaksis bo'limiga doir nazariy bilimlar berish, so'z birikmasi, sodda va qo'shma gap, gap tuzilishi bo'yicha ko'nikmalar hosil qildirish, 11-sinfda nutq uslublari va matn turlari bo'yicha bilimlar berish orqali o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishga erishish rejalashtirildi. 10-11-sinflar o'quv dasturiga kiritilgan yangiliklardan biri, o'quvchilarni taniqli o'zbek yozuvchi va shoirlarining hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumotlar bilan tanishtirish, ularning eng sara asarlaridan o'quvchining yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos parchalarni berish orqali ularni o'zbek adabiyoti namunalari bilan yaqindan tanishtirish, nutqini o'stirish, o'zbek adabiy tili me'yorlarini singdirish ko'zda tutilgan. O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida sinfdan tashqari o'qish uchun ham soatlar ajratildi.

O'zbek tili fanidan o'quv dasturidagi "Kun tartibim", "Tejamkorlik", "Suv – hayot manbai", "O'zbekistonning suv havzalari", "Tejamkor bo'laylik", "Ekologiya va biz" kabi mavzularni o'tishda "Tejamkorlik saboqlari" o'quv qo'llanmasidagi materiallardan unumli foydalanish mumkin. O'qituvchilar mustaqil ijodiy yondoshgan holda o'quv dasturi asosida o'zbek tili fanining yillik taqvim-mavzu rejasini ishlab chiqishlari, fan metod kengashida muhokama qilib, maktabning pedagogik kengashida tasdiqlashlari lozim. O'qituvchilarga metodik yordam sifatida dasturning oxirida fanlar kesimida o'zbek tili fanini mavzuiy rejalashtirish jadvali taqdim etildi. Jadvalda tayyor taqvim-mavzu rejaning andozasi berilgan. Shu bilan biralikda dasturning oxirida foydalanilgan manbalar, shu asosida har bir mavzudan keyin adabiyotlar raqamlanib berildi. Har bir mavzu doirasida taqdim etilgan mazkur adabiyotlar o'qituvchilarning bilimlarini mustahkamlab borishlariga xizmat qiladi.

## **IX SINF** **( 102 soat)**

### **O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:**

audio-video vositalar orqali eshittirilgan xabarlar, ommabop va kundalik hayot mavzusidagi yangiliklarni tushunadi;

o‘rganilgan mavzularda o‘zaro suhbatlashadi va bahslarda ishtirok etadi;  
suhbat jarayonida murojaat etish shakllarini, muomala odobi (etiket) elementlarini to‘g‘ri qo‘llaydi va fikrga munosabat bildiradi;

suhbatdoshining gapini bo‘lish, suhbatga qo‘shilish va unga aniqlik kiritish, nutqini sekinlashtirishga undash vositalaridan foydalanadi;

ommabop materiallarni (gazeta, shaxsiy va elektron xatlar) o‘qib tushunadi va mazmunini so‘zlayb beradi;

o‘rganilgan matnlar asosida 1300 ta so‘zni nutqida qo‘llaydi;

matnni (badiiy asardan parcha, hikoya, xabar) bir daqiqada 70-75 so‘z tezligida o‘qiydi;

71-80 so‘zdan iborat diktant va bayon matnini yozadi; 11-15 gap hajmida matn tuzadi;

ayrim ish qog‘ozlarini (ariza, tarjimai hol, e‘lon, tushuntirish xatini) yozadi;

ko‘rgan yoki eshitgan voqea-hodisani, hikoya, ertak, matn mazmunini gapirib beradi, unga munosabat bildiradi;

o‘zbek tiliga xos nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qiladi.

### **O‘zbekiston – umumiy uyimiz (5 soat)**

**Leksika:** ko‘p millatli, baynalminal markazlar, bir oila farzandlaridek, ahil va inoq, xalqlar do‘stligi, umumiy uyimiz, yagona Vatan, oila muqaddas kabi tayanch so‘zlar va so‘z birikmalari.

**Grammatika:** Teng va tobe bog‘lanish.

**Adabiy o‘qish:** O‘tkir Rahmatning vatan haqidagi she‘rlari.

### **Ilm – taraqqiyot negizi (5 soat)**

**Leksika:** ilm-fan, kitob mutolaasi, kitob sir-asrorlar kaliti, ilm – taraqqiyot negizi, qomusiy olimlar, donishmandlar, buyuk alloma, kashfiyot, bebaho boylik, kelajak uchun poydevor kabi so‘zlar va so‘z birikmalari.

**Grammatika:** So‘z birikmasi.

**Adabiy o‘qish:** Zarifa Saidnosirova. “Oybegim mening” xotiralaridan.

### **Men yoqtirgan kasb (4 soat)**

**Leksika:** kasblar, hunar egallash, hunarmandlik, kasbga qiziqish, san’atkorlik, shifokorlik, o‘qituvchilik, kasbim – faxrim, ustoz va shogird an’anasi kabi so‘z va birikmalar.

**Grammatika:** Gap.

**Adabiy o‘qish:** Abu Rayhon Beruniy haqida adabiy materiallar.

### **Mening tengdoshlarim (4 soat)**

**Leksika:** mening tengdoshlarim, maktabimiz faxri, yutuqlarga erishmoq, yaratilgan imkoniyatlar, iqtidorli yoshlar, iste'dodini namoyon qilish, barkamol avlod, do'stlikni qadrlamoq kabi tayanch so'zlar va so'z birikmalari.

**Grammatika: Darak gap.**

**Adabiy o'qish: Tohir Malik. Hayoti va ijodi. Adabiy materiallardan parcha.**

**Yaxshilik unutilmaydi (4 soat)**

**Leksika:** yaxshilik, yaxshi ish, yaxshi nom, yordam bermoq, ezgu ishlar, Xotira va qadrlash kuni, xotirlamoq kabi so'z va birikmalar.

**Grammatika: So'roq gap.**

**Adabiy o'qish: Humoyun Akbarov. Adabiy materiallardan parcha.**

**Ekologiya va biz (4 soat)**

**Leksika:** ekologiya, tabiat va biz, ekologik muammolar, tozalik-salomatlik asosi, toza havo – tanga davo, atrof-muhitni toza saqlash, sog'lom turmush tarzi, suvni ifloslantirmaslikka oid so'zlar va birikmalar.

**Grammatika: Buyruq gap.**

**Ishqog'oz:** E'lon matni.

**Adabiy o'qish: Gogol "Revizor"**

**Mehnat baxt keltirar (4 soat)**

**Leksika:** mehnatni qadrlash, mehnat qilish, mehnatsevarlik, mehnatda tanilgan, mehnatning rohati, ulug'lanadi, qadrlanadi kabi so'zlar va birikmalar.

**Grammatika: Sodda gap.**

**Adabiy o'qish: Abdulla Qahhor. Adabiy materiallardan parcha.**

**Burch va huquqlarimiz (4 soat)**

**Leksika:** baxtimiz qomusi, qonun moddalari, qonunchilikka amal qilish, odob-ahloq qoidalari, jamiyat oldidagi burch, farzandlik burchi, burchga sadoqat kabi so'zlar va birikmalar.

**Grammatika: Yig'iq va yoyiq gaplar.**

**Adabiy o'qish: Chori Avaz. Adabiy materiallardan parcha.**

**Me'moriy obidalar (4 soat)**

**Leksika:** me'morchilik, qadimiy obidalar, osmono'par minoralar, moviy gumbaz, Registon maydoni, naqshinkor madrasalar, zamonaviy inshootlar, ganchkorlik, sharqona usul, me'morchilik an'anasi kabi so'zlar va birikmalar.

**Grammatika: To'liq va to'liqsiz gaplar.**

**Adabiy o'qish: Mirkarim Osim. To'maris.**

**Vatan himoyachilari (5 soat)**

**Leksika:** Vatanni sevmok, Vatan himoyachilari, sarhadlarimiz, vatanparvarlik, chegarachi, askar bo'lmoqchiman, tinchlik uchun xizmat qilmoq, chegaralarimizni qo'riqlaymiz, Vatanga sadoqat kabi so'zlar va birikmalar.

**Grammatika: Qo'shma gap.**

## **Adabiy o‘qish: Shuhrat “Shinelli yillar”**

### **O‘zbekiston sporti (5 soat)**

**Leksika:** O‘zbekiston sportchilari, sport ustalari, o‘zbek kurashi, “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada”, o‘zbek shaxmatchilari, boks chempionlari kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika: Bog‘langan qo‘shma gap.**

**Adabiy o‘qish: Riffat Rixsiyev**

### **Barkamollik (5 soat)**

**Leksika:** yaxshilik, yaxshi ish, yaxshi nom, yordam bermoq, ezgu ishlar, Xotira va qadrlash kuni, xotirlamoq kabi so‘z va birikmalar.

**Grammatika: Biriktiruv bog‘lovchili qo‘shma gap.**

**Adabiy o‘qish: Xalq og‘zaki ijodi. “Bola va olma daraxti” rivoyati**

### **Ayol – oila ko‘rki (5 soat)**

**Leksika:** ona muqaddas, ayol - oila ko‘rki, ayol – xonadon farishtasi, ayolni e‘zozlamoq, onalik mehri, ayol va jamiyat, ayolga ta‘zim kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika: Zidlov bog‘lovchili qo‘shma gap.**

**Adabiy o‘qish: Muslim Yo‘ldoshev. “Bir dam o‘tir, onajonim”**

### **Milliy an‘analarimiz (5 soat)**

**Leksika:** milliy an‘ana va udumlar, milliy bayramlar, milliy qadriyatlar, to‘y marosimlari, muqaddas qadamjolar, qo‘ni-qo‘shnichilik, salomlashish va so‘zlashish odobi kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika: Ayiruv bog‘lovchili qo‘shma gap.**

**Adabiy o‘qish: Ravshan Fayz. Adabiy materiallar.**

### **Ma‘rifat fidoyilari (5 soat)**

**Leksika:** o‘zbek ma‘rifatparvarlari, fidoyi insonlar, o‘zbek ziyolilari, mangu barhayot siymolar, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, bilim, ma‘rifat, kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika: Inkor bog‘lovchili qo‘shma gap.**

**Adabiy o‘qish: Is‘hoqxon To‘ra Ibrat**

### **O‘zbek musavvirlari (5 soat)**

**Leksika:** ma‘rifat markazi, axborot-resurs markazi, ma‘lumotlar bazasi, elektron ma‘lumotlar, avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona, foydalanuvchilar ro‘yxati, adabiyotlar ro‘yxati kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika: Ergash gapli qo‘shma gap.**

**Adabiy o‘qish: O‘rol Tansiqboyev ijodi.**

### **San‘at olamida (5 soat)**

**Leksika:** san'at, san'atkor, milliy cholg'u asboblari, sharq taronalari, mumtoz kuy va qo'shiqlar, kuy sehri, betakror ovoz sohibi, raqs jozibasi, berilib kuylash, diqqat bilan tinglash kabi so'zlar va so'z birikmalari.

**Grammatika:** Bog'lovchisiz qo'shma gap.

**Adabiy o'qish:** Botir Zokirov. San'atga oid matnlar, ma'lumotlar.

#### **Orzular qanotida (4 soat)**

**Leksika:** orzular, orzuga yetishish, ezgu maqsad sari, imtihonlar, intilmoq, mening orzuyim, erishish, maqsad sari kabi so'z va birikmalar.

**Grammatika:** Qo'shma gaplarni takrorlash.

**Adabiy o'qish:** A. P. Chexov ijodi. Hikoyalari.